

## Tarjimashunoslik ta'limida preskriptiv va deskriptiv yondashuvlar

**Axmedova Anorxon Nasivali qizi**

*O'zDJTU v.b.dotsenti,  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya** *Mazkur maqola tarjimoshunoslikdagi preskriptiv va deskriptiv yondashuvlarning mohiyati va ular o'rtasidagi farqlarga bag'ishlangan. Unda an'anaviy preskriptiv qarashlar, ya'ni tarjimaga qo'yiladigan qat'iy qoidalar va me'yorlarni belgilashga asoslangan yondashuvning cheklangan jihatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, keyingi o'n yilliklarda tarjimashunoslikda shakllanib kelayotgan deskriptiv yo'nalishning paydo bo'lish sabablari, uning nazariy asoslari va ilmiy tadqiqotdagi ahamiyati keng yoritilgan. Deskriptiv yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida tarjimoni til va madaniyatlararo aloqaning tabiiy mahsuli sifatida o'rganish, tarjimon faoliyatini empirik faktlar asosida tahlil qilish, hamda tarjima amaliyotidagi real holatlarni qamrab olish masalalari ko'rsatib o'tiladi. Maqolada ushbu ikki yondashuvning o'zaro ta'siri, ularning bugungi tarjimashunoslik metodologiyasidagi o'rni va ilmiy tadqiqotlarga ta'siri bo'yicha xulosalar berilgan. Yondashuvlar qiyosida preskriptiv modelning tarixiy ustunligi va an'anaviy didaktikaga ta'siri ham tahlil qilinadi. Deskriptiv yo'nalishning rivojlanishi tarjimashunoslik fanida empirik tadqiqot metodlarining kuchayishiga olib kelgani alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot davomida tarjima jarayonini o'rganishda kuzatuv, matn korpusi va tajribaviy metodlarning ahamiyati misollar bilan yoritilgan. Maqolada shuningdek, yangi ilmiy paradigma sifatida deskriptiv yondashuvning tarjima jarayonidagi ijodkorlik va tarjimada moslashuvchanlikni ochib berishdagi o'rni ko'rsatiladi. Zamonaviy tarjima nazariyasi va amaliyotida ushbu ikki yondashuvning uyg'unlashuvi kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida baholanadi. Ushbu ish natijalari tarjimoshunoslikka oid o'quv dasturlari va ilmiy tadqiqot metodologiyasini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar** *Preskriptiv va deskriptiv yondashuv, rekodlash va dekodlash, funksional-semantik transfer, dinamik ekvivalentlik*

## Прескриптивный и deskriptivный подходы в обучении переводоведению

**Ахмедова Анорхон Насивали кизи**

*Вр. у.о. доцента УзГУМЯ,  
PhD по филологическим наукам*

**Аннотация** *Данная статья посвящена сущности прескриптивного и deskriptivного подходов в переводоведении и различиям между ними. В ней анализируются традиционные прескриптивные взгляды, основанные на строгих правилах и нормах перевода, а также ограниченные возможности такого подхода. Одновременно подробно рассматриваются причины возникновения deskriptivного направления в последние десятилетия, его теоретические основы и значение в научных исследованиях. Основными принципами deskriptivного подхода названы изучение перевода как естественного продукта языкового и межкультурного взаимодействия, анализ*

*переводческой деятельности на основе эмпирических данных и учет реальных условий переводческой практики. В статье сделаны выводы о взаимном влиянии этих двух подходов, их месте в современной методологии переводоведения и влиянии на научные исследования. Кроме того, проводится анализ исторического доминирования прескриптивной модели и ее влияния на традиционную дидактику. Подчеркивается, что развитие дескриптивного направления способствовало усилению роли эмпирических методов исследования в науке о переводе. В ходе исследования показано значение наблюдения, корпусного анализа и экспериментальных методов в изучении перевода. Отмечается, что дескриптивный подход как новая научная парадигма раскрывает творческую и адаптивную природу переводческого процесса. В статье подчеркивается, что интеграция этих подходов является перспективным направлением для будущих исследований, а полученные результаты могут быть применены при совершенствовании учебных программ и методологии научных исследований в области переводоведения.*

**Ключевые слова** *Прескриптивно-дескриптивный подход, перекодирование и декодирование, функционально-семантический перенос, динамическая эквивалентность*

---

## **Prescriptive and Descriptive Approaches in Translation Studies Education**

**Akhmedova Anorkxon Naisvali qizi**  
*Assistant professor of UZSWLU,  
Doctor of Philosophy (PhD) on  
philological sciences*

**Annotation** *This article focuses on the essence of prescriptive and descriptive approaches in translation studies and the differences between them. It analyzes the traditional prescriptive views based on strict translation rules and norms, as well as the limitations of this approach. At the same time, the article explores the reasons for the emergence of the descriptive trend in recent decades, its theoretical foundations, and its significance for scholarly research. The main principles of the descriptive approach are defined as studying translation as a natural outcome of linguistic and intercultural interaction, analyzing translation practices on the basis of empirical evidence, and considering real conditions of translation activity. The paper draws conclusions about the interaction of these two approaches, their role in modern translation studies methodology, and their influence on academic research. It also examines the historical dominance of the prescriptive model and its impact on traditional didactics. The study emphasizes that the growth of the descriptive approach has contributed to the strengthening of empirical research methods in translation studies. The importance of observation, corpus analysis, and experimental methods in studying translation is highlighted. Furthermore, the descriptive approach is presented as a new scientific paradigm that reveals the creative and adaptive nature of the translation process. The article concludes that the integration of these approaches offers promising directions for future research, and its findings can be applied to the improvement of translation studies curricula and research methodology.*

**Keywords** *Prescriptive and descriptive approach, recoding and decoding, functional-semantic transfer, dynamic equivalence*

### Kirish

Tarjima nazariyasi va amaliyotida ikki katta yondashuv bo'lib, zamonaviy tarjimon bu ikki yondashuvni bir-biridan farqli va o'xshash jihatlarini, ulardan tarjima jarayoni, tarjima tadqiqotlarida foydalanishni bilishi lozim. Ular preskriptiv va deskriptiv tarjima yondashuvlaridir. Quyida ular haqida kengroq to'xtalib o'tamiz.

**Preskriptiv yondashuvni grammatika, leksika va sintaksis** darajasida "to'g'ri" va "noto'g'ri" tarjimalarni ajratib beruvchi yondashuv deb ham ta'riflash mumkin. Tarjimaga baho berishda u statistik mezonlarga tayangan holda harakat qiladi. Bu yondashuv, ayniqsa, darsliklar, qonunchilik hujjatlari va rasmiy matnlar tarjimasida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Deskriptiv yondashuv** esa tarjima nazariyasida "**tarjima amalda qanday amalga oshirilmoqda?**" degan savolni

o'rganadi. Bu yondashuv tarjima jarayonini *real voqelik sifatida kuzatadi, tavsiflaydi va tahlil qiladi*. Deskriptiv yondashuvda hech qanday qat'iy me'yorlar yo'q – uning asosiy vazifasi tarjimonlar qanday qarorlar qabul qilayotganini, qanday strategiya va texnikalarni qo'llayotganini aniqlashdir. Ushbu yondashuv korpus lingvistikasiga, tarixiy tarjima amaliyotiga, sotsiomadaniy kontekstga asoslanadi va tarjimalarni statistikasi asosda o'rganadi. Ya'ni u tarjimani qanday bo'lishi kerakligidan emas, balki qanday bo'layotganidan kelib chiqadi. Tarjimaning ko'p variantli va kontekstual xususiyatlarini hisobga oladi, shuningdek, maqsad tilidagi madaniy va stilistik moslikni chuqur o'rganadi.

Ushbu jadvalda tarjima nazariyasidagi ikki asosiy yondashuv – preskriptiv va deskriptiv tarjima o'rtasidagi ilmiy farqlar mezonlar asosida taqqoslab ko'rsatilgan.

Nº	Asosiy mezonlar	Preskriptiv tarjima	Deskriptiv tarjima
1.	<b>Yondashuvning tabiati</b>	Normativ, me'yoriy	Empirik, tasviriy
2.	<b>Asosiy maqsadi</b>	Tarjimaning qanday bo'lishi kerakligini ma'lum qoidalar asosida belgilaydi.	Tarjimaning real holatdagi amaliyotini o'rganadi.
3.	<b>Tilga yondashuvi</b>	Original matn tiliga sodiqlikni saqlaydi.	Tarjima tilidagi real qo'llanilishni hisobga oladi.
4.	<b>Baholash mezoni</b>	Tarjimaga to'g'ri yoki noto'g'ri degan baho beriladi.	Tarjima qanday amalga oshirilgani tahlil qilinadi.
5.	<b>Ilmiy nazariya asoschilari</b>	E. Nida, P. Newmark, J. Vinay va J. Darbelnet	G. Toury, M. Baker, A. Lefevere, I. Even-Zohar
6.	<b>Tarjima jarayoniga bo'lgan metodologik yondashuvi</b>	Tarjimaga me'yoriy baho berish mezonlarini shakllantiradi.	Korpuslar asosida tarjimalar orasidagi moslik va o'zgarishlarni tavsiflovchi yondashuvni qo'llaydi.

7.	<b>Qo'llanish sohasi</b>	Rasmiy hujjatlar, darsliklar, qonunchilik matnlari	Tarjima korpuslari, tarjima tarixiy tahlillari.
8.	<b>Metodologik yondashuv</b>	Nazariy mezonlarga tayanadi.	Amaliy, kuzatuvga asoslangan.
9.	<b>Manba va maqsad tiliga munosabat</b>	Formal va statistik adekvatlikni saqlagan holda tarjima qilish ustuvor deb hisoblanadi.	Korpus asosida tarjima tilida ishlatiladigan tarjima modellarining amaliy kontekstdagi ko'rinishlari aniqlanadi.
10.	<b>Misol orqali izoh</b>	Ingliz tilidagi "I'm hungry" iborasini o'zbek tiliga "Men ochman" deb tarjima qilish talab etiladi, chunki bu adekvat va grammatika qoidalariga to'g'ri keladi.	"I'm hungry" iborasi tarjima matnlarida turlicha: "Och qoldim", "Ochligimni sezdim", "Qornim och" tarzida ishlatilgan. Bu real tarjima variantlarini tahlil qilish deskriptiv yondashuvga xos.

### 1.3. 2-jadval. Preskriptiv va deskriptiv yondashuv farqlari

Preskriptiv yondashuvga E. Nayda (Nayda, 1964) asos slogan tarjima jarayonini lingvistik uzatish (linguistic transfer) deb emas, balki mazmun va tushunchalarni bir til tizimidan ikkinchisiga o'tkazish jarayoni deb tushuntiradi. Bu jarayon ikki asosiy bosqichga ajratiladi: dekodlash (Decoding) va rekodlash (Re-encoding).

**Dekodlash** bosqichida original matn tili 210tatisti jihatdan tahlil qilinadi, ya'ni asl matnning yuzaki til shakllari orqasidagi chuqur mazmun ajratib olinadi. Bu bosqichda:

- leksik va grammatik tahlil;
- statistik strukturalarni aniqlash;
- statistik kontekstni tushunish;
- madaniy-referensial ma'lumotlarni ajratish kabi amallar qilinadi.

Masalan, "break the ice" iborasining tarjimasini tahlil qilamiz. Bu ibora "muzni sindirmoq" deb dekodlanadi. Semantik dekodlash – ijtimoiy suhbatda sukunatni buzish, muhitni erkinlashtirish, odamlarni

erkinroq muloqotga undash ma'nolarini bildiradi.

**Rekodlash (re-encoding)** – bu bosqichda dekodlangan statistik ma'lumotlar tarjima tilida tabiiy va kontekstga mos shaklda qayta ifodalanadi. Uni amalga oshirish bosqichlari quyidagilar:

- maqsad tilining leksik va sintaktik vositalaridan foydalanish;
- ma'lumotni maqsad auditoriyasining madaniy kontekstiga moslashtirish;
- stilistik va funksional moslikni ta'minlash.

O'zbek tilidagi rekodlangan tarjima variantlari: "suhbatni jonlantirdi", "sukutni buzdi", "yuzlarni kuldirdi", "gapni boshladi" kabi ma'nolarda keladi. Masalan,

"She told a funny story to break the ice."

Gapini rekodlangan o'zbekcha tarjima quyidagicha:

"U suhbatni ochish uchun kulgili voqea aytib berdi/ hazil qildi."

Agar bu ibora so'zma-so'z tarjima qilinsa – "U muz sindirdi" – bu kontekstual

ji hatdan noto'g'ri yoki noaniq bo'ladi. Shuning uchun dekodlash bosqichida asl ma'no ajratib olinadi va rekodlash bosqichida u o'zbek tilidagi ijtimoiy muloqotga mos variant bilan almashtiriladi. Bunda – **dinamik ekvivalentlik tamoyiliga mos, statisti yadro saqlanadi, lekin leksik shakl o'zgaradi.** Bu holatda rekodlash bosqichi asl ifodaning mazmuniy ekvivalentini tarjima tilida yaratadi, lekin grammatik yoki stilistik ji hatdan aynan mos kelmasa ham, va kommunikativ ji hatdan adekvat hisoblanadi. E. Nayda bu modelni **psixolingvistik jarayon** sifatida ko'radi. Tarjimon faqat so'zlarni emas, balki fikrlar, tushunchalar va madaniy konnotatsiyalarni anglab, ularni qayta ifodalashi kerak.

Dekoder sifatida: til birliklarini statistik birliklarga aylantiradi.

Rekoder sifatida: statistik birliklarni yangi til kodida qayta shakllantiradi.

E. Nayda uchun tarjima faqat tildan tilga o'tkazish emas, madaniy kontekstlararo kommunikatsiyani ta'minlash vositasidir. Dekodlash–rekodlash modeli faqat lug'aviy darajada emas, balki madaniy tafakkur darajasida ishlaydi. Masalan, Bibliya tarjimalarida:

"Lamb of God" iborasi ba'zi tillarda "xudo yuborgan begunoh qurbon" deb rekodlanadi, chunki har doim jonivor metaforasini berish to'g'ri anglanmasligi mumkin.

**Dekodlash–rekodlash modeli** tarjima nazariyasida **funksional-semantik transfer** yondashuvining asosini tashkil qiladi. E. Nayda bu model orqali tarjimonni ikkita madaniyat o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladigan til vositachisi sifatida tasvirlaydi. Bu model preskriptiv nazariyaning eng mantiqiy va amaliy

ji hatdan asoslangan shakli sifatida e'tirof etilgan.

**Deskriptiv yondashuvni** asos solgan olimlardan biri Gideon Toury (Toury, 1980) bo'lib, u 1995-yilda e'lon qilgan "Descriptive Translation Studies and Beyond" nomli fundamental asarida bu yondashuvning metodologik, amaliy va nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

Deskriptiv yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- 1) Tarjimaga amaliy yondoshiladi. Tarjima qilingan real matnlar kuzatiladi va tahlil qilinadi.
- 2) "Tarjima qanday bo'lishi kerak?" degan savol emas, balki "Qanday tarjima qilinmoqda?" degan savol asosida ishlaydi.
- 3) Tarjima madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstda o'rganiladi.
- 4) Sifat baholash bilan emas, kuzatish bilan shug'ullanadi.

Gideon Touryning konsepsiyasiga ko'ra, har bir tarjima matni "ikkilamchi" matndir va u ma'lum madaniy normativlar asosida yaratiladi. Toury quyidagi tushunchalarni ilgari suradi:

**Initial norm (Boshlang'ich me'yor):** tarjimon aslga sodiq qoladimi yoki tarjima tili me'yorlariga moslashadimi?

**Preliminary norms:** tarjima qilishdan oldingi tanlovlar (masalan, qanday matnlar tarjima qilinadi).

**Operational norms:** tarjima davomida amal qilinadigan stilistik va grammatik me'yorlar.

Masalan, 1. **Stilistik me'yorni o'zgartirish**

ST (Inglizcha): "I gotta go now." (So'zlashuv uslubi)

TT (O'zbekcha tarjima): "Men endi ketishim kerak." (Adabiy uslub)

Bu holatda tarjimon rasmiylashtirish (**normalization**) amaliyotini qo'llagan. Deskriptiv yondashuvda bu real tanlov sifatida qabul qilinadi, **baholanmaydi, lekin sabablari tahlil qilinadi:** madaniyatga moslashish, tildagi o'quvchi uchun qulaylik.

#### 1. **Ekspressivlikni kamaytirish**

ST: "That man was a complete fool!"  
(Emotsional, salbiy)

TT: "U odam unchalik aqlli emas edi."  
(Neutrallashtirilgan)

Tarjimon ekspressiyani yumshatgan. Deskriptiv yondashuv bunga baho bermaydi, faqat shunday stilistik o'zgarishlar tarjimada ko'p uchrashini qayd etadi va bu universallardan biri – **simplification** sifatida tavsiflanadi.

#### **Xulosa**

Bugungi kunda korpus lingvistikasi deskriptiv yondashuvni yanada kuchaytirmoqda. Korpuslar orqali minglab tarjimalar tahlil qilinadi. Mona Baker (M.Baker, 1993) **Translational English Corpus (TEC)** asosida tarjima matnlarida leksik xilma-xillik kamayishi, stilistik neytrallik kuchayishi kabi tendensiyalarni aniqlagan.

Sara Laviosa (S.Laviosa, 2002) tarjimalarda stilistik soddalashtirish va

normallashtirish hodisalarini TEC yordamida tahlil qilgan.

Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarjimalarda ba'zi uslubiy o'zgarishlar muntazam ravishda yuz beradi. Deskriptiv yondashuv aynan mana shu doimiy kuzatiladigan hodisalarni ilmiy tushuntiradi.

Deskriptiv yondashuv orqali tarjima darslari olib borilsa quyidagi natijalarga erishishga olib keladi:

1. Talabalar shablon, "ideal tarjima" degan tasavvurlardan voz kechib, real tarjima variantlarini tushunishni o'rganadilar.
2. Tarjimonlik kompetensiyasida reflektiv fikrlash shakllanadi: "Nega men bu so'zni tanladim? Qanday uslubda tarjima qilayapman?"
3. Dars jarayonida parallel korpuslar yordamida stilistik o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Deskriptiv yondashuv tarjimashunoslikda real holatni kuzatish, stilistik, leksik va grammatik tendensiyalarni tahlil qilishga asoslanadi. Bu yondashuv nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki tarjima ta'limi, tarjimon tayyorlash va tarjima sifatini tizimli o'rganish uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Baker, M. (1993). *Corpus linguistics and translation studies: Implications and applications*. Amsterdam: John Benjamins.
2. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. London/New York: Routledge.
3. Baker, M. (2000). Translation and activism: Emerging patterns of narrative community. *The Translator*, 6(1), 23.
4. Hurtado Albir, A. (2005). Competence in translation: Beyond training. In M. Olohan (Ed.), *Intercultural faultlines: Research models in translation studies II* (pp. 3–20). Manchester.
5. Laviosa, S. (2002). *Corpus-based translation studies: Theory, findings, applications*. Amsterdam/New York: Rodopi.



6. Laviosa, S. (2009). Corpus-based translation studies 15 years on: Theory, findings, applications. *Perspectives: Studies in Translatology*, 17(1), 45–57.
7. Pym, A. (2011). Training translators and building translation competence: Some research models and strategies. In K. Malmkjær & K. Windle (Eds.), *The Oxford handbook of translation studies* (pp. 212–218). Oxford.
8. Toury, G. (1995a). A rationale for descriptive translation studies. In B. Lewandowska-Tomaszczyk & M. Thelen (Eds.), *Translation and meaning* (Part 3, pp. 197–210). Maastricht: Maastricht School of Translation and Interpreting.
9. Toury, G. (1995b). *Descriptive translation studies and beyond*. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.
10. Toury, G. (1980). *In search of a theory of translation*. Tel Aviv: Porter Institute for Poetics and Semiotics, Tel Aviv University.
11. Toury, G. (1998). The nature and role of norms in translation. In M. Baker (Ed.), *Translation studies: An interdisciplinary* (pp. 198–211). Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.